

AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI O'TKAZILISHIGA OID BILDIRISH

HURMATLI AKSIYADORLAR!

“O‘zbektelekom” AK aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishini 2025-yil 25-iyul kuni soat 11:00 da masofadan turib <http://evote.uz> – elektron ovoz berish platformasi orqali quyidagi kun tartibida o‘tkaziladi:

1.	“O‘zbektelekom” AK aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi reglamentini va Sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash.
2.	“O‘zbektelekom” AKning kundalik xo‘jalik faoliyatiga kiradigan xizmatlar va ishlab chiqarish mahsulotlari ro‘yxatini tasdiqlash.
3.	“O‘zbektelekom” AK tomonidan yirik bitim tuzilishi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risida aksiyadorlarga xabar berish uchun aksiyadorlarning ro‘yxati 2025-yil 1-iyul holatiga, shuningdek umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega aksiyadorlarning ro‘yxati 2025-yil 21-iyul holatiga tuziladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qatnashchilarini ro‘yxatga olish 2025-yil 25-iyul kuni soat 09:30 dan 10:50 gacha amalga oshiriladi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida qatnashish va ovoz berish uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjat yoki aksiyadorlarning vakillarida o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo‘lishi lozim.

Shuningdek, Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi kun tartibidagi masalalar bo‘yicha masofadan turib ovoz berish Elektron raqamli imzo (ERI) yordamida www.evote.uz veb-sayti orqali amalga oshiriladi.

Ma’lumot uchun telefonlar: (71) 100-01-14, (71) 100-01-15